

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHIDA BUXORO SHAHRIDA HUNARMANDCHILIK

Qilichev Rajab Ergashovich

*Tarix fanlari nomzodi, dotsent,
Buxoro davlat pedagogika instituti,*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro shahri qadimdan xalq hunarmandchiligi sohalari markazi bo'lganligi va unda to'qimachilik, miskarlik, zargarlik, zardo'zlik va boshqa ko'plab hunar sohalari rivoj topganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Buxoro, hunarmandchilik, to'qimachilik, miskarlik, zargarlik, zardo'zlik, poyabzaldo'zlik, kulolchilik, kashtado'zlik, do'ppido'zlik.

Аннотация: В статье речь идет о том что, Бухара была издавно крупным центром средневекового художественного ремесла. Особенно славилась она медно-чеканным производством, ювелирными изделиями, искусством тканей-хлопчатобумажных, гончарном, шелковых и бархатных, золотошвейным искусством и большим ассортиментом бытовых изделий художественного значения.

Ключовые слова: Бухара, ремесло, ткачи, хлопчатобумага, шелк, шелковые материалы, бархат, ювелир, ювелирные изделия, медники, керамика, вышивание, золотошвей, тюбитейка, сюзана.

Annotation: This article informs about the fact that the city of Bukhara has long been the center of folk crafts and developed textiles, coppersmithing, jewelry, goldsmithing and many other trades.

Key words: Bukhara, handicrafts, textiles, coppersmithing, jewelry, goldsmithing, shoemaking, pottery, embroidery.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida Buxoro amirligi shahar va qishloqlarida to'qimachilik, zargarlik, miskarlik, temirchilik, cho'yangarlik, rextagarlik, charmgarlik, etikdo'zlik, mahsido'zlik, kavushdo'zlik, kulolchilik, beshiksozlik, sandiqsozlik, nonvoylik, holva-nisholdapazlik kabi yuzga yaqin hunarmandchilik sohalari bo'lib, ularda minglab usta hunarmandlar aholining kundalik turmushida zarur bo'lgan turli-tuman mahsulotlarni tayyorlab, xalqimizning turmush darajasini yuksalishiga, Buxoro amirligining jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lishida beqiyos hissa qo'shganlar.

Amirlikda eng ko'p taraqalgan va rivoj topgan hunarmandchilik sohasi to'qimachilik bo'lib, hunarmandlar paxta va pilla tolasidan chit, doka, atlas, xonatlas, beqasab, shohi, adras, duro'ya, yakro'ya kabi aholi turmushida keng qo'llaniladigan hamda katta miqdorda chetga chiqariladigan o'nlab xildagi matolar tayyorlashgan. Paxtani chigitdan tozalashda yog'och dastgoh-xallojdan [5,123 b], tolasini ip qilib yigirishda naychacharxdan foydalanishgan. Kalavaning $\frac{1}{2}$ funti 50 tiyinga baholangan [15.11 v]. XX asr boshida amirlik markazi Buxoroda 46 ta, Qarshi shahrida 19 ta ipakchilik korxonasi bo'lgan [3,217 b]. Pillani qayta ishlab undan tayyor ipak olgunga qadar bo'lgan ishlarni pillakash, naychakash, daurakash deb nomlangan ustalar bajargan. Shaharda 1 botmon pillani qayta ishlagani uchun pillakashga 10 tanga, charxkash, naychakash, charxtob va daurakashga 6-7 tanga to'langan.

Amirlik aholisi o'rtasida eng ko'p tarqalgan paxta matolar bo'z, qalami, chit bo'lgan. Yuqori sifatli bo'zdan ko'ylak, lozim, yaktak, to'n, pashshaxona, past sifatlisidan to'n va xalatlarga astar tayyorlangan. Chitdan ko'rpa va to'nlar uchun astar, ko'rpacha, dasturxon, sandalpo'sh, joynomoz, salla, belbog', kiyim-kechak, bug'joma, buxchaband tayyorlanib, ularga mexcha, kajgul, palak, morpech, anor, bargak, barg, oy, uzangi kabi turli-tuman naqshlar tushirilgan. O'tmishda ancha qimmatbaho hisoblanib, o'ziga to'q oilalar tomonidan foydalanilgan baxmalning amirlikda ikki xili-tekis va patlisi tayyorlangan. Baxmalbof bir kunda 2 arshin mato to'qib, har bir arshiniga 55 tiyin ish haqi olgan [16,3 v]. Baxmaldan ayollar ko'ylagi, kaltapo'shak, xalat, do'ppi, gulko'rpa, zardevor, dasturxonlar tayyorlangan. XX asrning 20-yillariga kelib qo'lda baxmal to'qish yo'qolib, uning silliq, guldor, siqiq, bosma xillari fabrika to'quv dastgohlarida to'qila boshlangan.

Amirlikda paxta matolardan tashqari, katta miqdorda adras, alocha, xonatlas, beqasab, shohi, qalg'ay, duro'ya kabi ipak va yarim ipak matolar ham tayyorlangan. Asosan erkaklar to'ni tayyorlangan alocha qo'l dastgohida to'qilgan ingichka yo'lli mato bo'lib, arqog'i ip, o'rishi ipak bo'lgan. Paxta ipi sirg'aluvchi ipak ipni mustahkam saqlab turgan va bu o'z navbatida matoning chidamligini ta'minlagan. Beqasab ingichka yo'lli mato bo'lib, alochadan o'zining sifati, tayyorlanish usuli va yo'llarining ingichkaligi bilan ajralib turadi. Adras, shohi, qalg'ay, atlas va xonatlas matolar to'liq ipakdan tayyorlanib, ularni to'quvchi ustalar adrasbof, shohibof, qalg'aybof, atlasbof deb atalgan. Buxoro adrasi asosan Xorazm, Samarqand, Toshkent, Sharqiy Turkiston va Afg'onistonga katta miqdorda

chiqarilgan. Buxoro shohisi sof ipakdan to'qilgan mato bo'lib, arqog'i va o'rishi bir xil kattalikda tekis va tig'iz bo'lganligi uchun boshqa hududlarda tayyorlangan shohidan ajralib turgan. Qalg'ay kudunglangan yupqa ipak mato bo'lib, amirlikda uni asosan yahudiylar tayyorlashgan. Buxoro shahrida 300 ga yaqin qalg'aybof bo'lib, ular Shohi Axsi, Korxona, Qozi kalon mahallalaridan yashashgan [11,81 b].

To'qimachilik sanoatida bo'yoqchilik(rangrezlik) katta o'rin egallagan va u ikkita mustaqil sohaga: 1. Ko'k rangli bo'yoq tayyorlovchi; 2. Ko'k rangdan boshqa bo'yoqlarni tayyorlovchilarga bo'lingan. Rangrezlar bo'yoq tayyorlashda tabiiy mineral va o'simliklar-cho'yan, malg'ash, qora mis, lojuvard, mis mag'il, ro'yan, gulxayri, kirmak, buzg'unch, qizil va qora baqam, isparak, tuxmak shirach, nildan foydalanishgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro shahri Markaziy Osiyodagi yagona zardo'zlik markaziga aylanib qoldi. Amir Shohmurod (1785-1800 yy.) va amir Haydar (1800-1826 yy.) davrida zardo'zlik uncha taraqqiy etmagan bo'lsada, amir Abdulahad (1885-1919 yy.) va amir Sayyid Olimxon (1910-1920 yy.) tomonidan zardo'zlik san'atiga alohida e'tibor bilan qaralgan. Ular davrida saroyga hamda xususiy kishilarga qarashli Buxoro shahridagi korxonalarda 300-350 tagacha zardo'z ustalar faoliyat ko'rsatib, ular tomonidan amir va uning oila a'zolari, amaldorlar, yuqori tabaqa vakillari buyurtmasiga binoan zardo'zi to'n, etik, kavush, mahsi, ko'ylak, ro'mol, do'ppi, kaltapo'shak tayyorlangan. 1894 yilda amir Abdulahadning Karmanaga butunlay ko'chib o'tishi bilan arkdagi zardo'zlik korxonasi Karmanadagi Chorbog'gul saroyiga ko'chirilib, unda turli yillarda 20 tadan 40 tagacha tajribali zardo'zlar faoliyat ko'rsatgan. Saroy ustaxonalaridan tashqari Buxoro shahrida 20 ga yaqin xususiy ustaxonalar ham bo'lib, ularda asosan mayda buyumlar-do'ppi, belbog', qopchiqcha, peshonaband, bolalar to'ni va etigi tayyorlangan. Zardo'zlar zar to'n tikishda eng a'lo nav hisoblangan "baxmali birishim" yoki Yevropadan keltirilgan "baxmali farangi"ni afzal ko'rishgan. To'ndan tashqari boshqa zardo'zi buyumlar "baxmali musi"dan tayyorlangan. Zardo'zlikda asosiy xom ashyo hisoblangan zar ip-kalyobatun XIX asrning ikkinchi yarmidan Rossiyadan olib kelina boshlangan va uning har bir bog'lami 60 zolotnik(255 gramm) bo'ib, bozorda 100-114 tangandan sotilgan [2.102 b].

Xalqimizning milliy iftixori hisoblangan do'ppi va to'n asrlar davomida usta-hunarmandlar tomonidan tayyorlanib

kelingan. Amirlikning nafaqat Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz, Kitob, Boysun shaharlarida balki ko'plab qishloqlarida xotin-qizlar do'ppining Iroqi, Gilam, Chakma to'r, Qizil gul, Piltado'zi, Baxmal, To'ldirma, Zardo'zi kabi turli-tuman xillarini baxmal, satin, sidirg'a shohidan oddiy, ipak, zar iplar bilan tikib, tayyorlashgan. Telpakdo'zlik amirlikda eng keng tarqalgan hunar sohalaridan biri hisoblanib, hatto Buxoro shahrida alohida telpakdo'zlar rastasi-Toqi telpakfurushon bo'lgan. Keksa telpakdo'z ustalar ma'lumotiga qaraganda XX asr boshida shaharda mavjud bo'lgan 34 ta telpakdo'zlik do'konidan 13 tasi Toqi telpakfurushonda joylashgan. Telpak asosan qorako'l teri, qo'y, tulki, qunduz terilari va baxmal matodan tikilgan [7].

Buxoro amirligida ham to'n tikish bilan qadimdan ayollar shug'ullanib kelgan bo'lsa, XIX asr oxirlarida Buxoro bozorlarida "Zinger" tikuv mashinalari paydo bo'lgandan so'ng to'n tikish bilan erkaklar ham shug'ullana boshlagan. Markaziy Osiyoning turli hududlarida to'n, chopon, joma, do'n, guppi, jegda deb atalgan to'nlari tikilishiga qarab avra, astarli, paxtali deb, tikilgan matosiga qarab zardo'zi, kimxob, beqasam, banoras, qalami, adras, baxmal, atlas, satin, chit deb nomlangan. Buxoro choponlari keng va uzun bo'lib, yorqin rangli, keng yo'llik va yirik naqshli matolardan tikilgan. Chopondo'zlik asosan choponfurushlik bilan shug'ullanadigan savdogarlar qo'lida bo'lib, ular bozordan katta miqdorda turli matolarni sotib, ularni chopondo'zlarga tarqatib berganlar. Shohi to'nlarning har bir tikilgan donasiga 2 tangadan haq to'lashgan. Buxoro shahrida choponfurushlarning 70 ga yaqin do'koni bo'lib, ular Havuzi Lesak bo'yida ikki qator rasta bo'lib joylashgan edi. Shundan 20 ga yaqin do'kon ancha yirik bo'lib, ularda 2 mingdan 3 mingtagacha to'n saqlangan [9,58 b].

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida amirlikda metallni qayta ishlash sohalari- temirchilik, cho'yangarlik, zargarlik, miskarlik, rextagarlik kabi sohalari keng tarqalgan edi. Shu davrda birgina Buxoro shahrida 150 ta temirchi faoliyat ko'rsatib, shundan 50 tasi o'roqsozlik, 30 tasi ketmonsozlik bilan mashg'ul bo'lgan [4,51 b]. Qolgan ustalarning bir qismi zanjir, zulfin, mix, nag'al, suvlik va boshqa mayda buyular tayyorlashgan bo'lsa, boshqa qismi duradgor, toshtarosh, yer qazuvchilar uchun asbob-uskunalar tayyorlab berishga ixtisoslashgan edi. Temirchi ustaning asboblari-to'rtta bolg'a-dast xoisk, xoiski pardoz, xoiski tashchin, putkdan, uchta ombir-rost, kaj, qalam ombirdan, sangdon, gira, bosqondan iborat bo'lgan. Temirchi usta eng og'ir va murakkab ishlarni bajarsa, xalfa og'ir

bolg'a-putk bilan buyumni bolg'alashda ustaga yordam berib turgan. Shogird esa bosqon yordamida o'choqdagi olovni alangalatib turgan.

Qarshi bekligi o'zining pichoq tayyorlovchi ustalari bilan mashhur bo'lgan. Po'latdan yasali, dastasiga oltin yoki kumush qoplangan Qarshi pichoqlari bozorda juda yuqori baholangan. Temirchilikning yana bir sohasi qurol-yaroqsozlik bo'lib, urush paytlarida qurolsoz ustalar hukumatdan juda katta buyurtmalar olishgan. Tinchlik davrida esa ular pichoq, suvliq, taqa kabi mayda buyumlar yasash bilan kun kechirishgan. Qurolsozlik markazi Buxorodan keyingi o'rinda turgan Samarqand shahrida XIX asr o'rtalarida 15 ta qurolsozlik ustaxonasi bo'lib, shundan oltitasida malakali ustalar faoliyat ko'rsatgan. Samarqand rus qo'shinlari tomonidan zabt etilgandan so'ng rus ma'muriyati qurol yasashni man qiladi [3,217 b].

Amirlikning Boysun, Qorategin, Hisor bekliklari temir rudasiga boy hududlar hisoblangan. Masalan, XX asr boshida Boysun bekligida 25 ta ruda eritish pechlari bo'lib, ularda 50 kishi faoliyat ko'rsatgan. Darvoz, Qorategin, Hisor bekliklarida 1910 yilda 3000-4000 pud temir va yana shuncha cho'yan eritigan. Lekin qazib chiqariladigan ruda amirlik aholisi ehtiyojini to'la qondira olmagan. Shu sababli Rossiyadan keltiriladigan metallga katta umid bog'laganlar. Chor Rossiyasi bosqiniga qadar O'rta Osiyoga metall olib kelish ta'qiqlangan edi. Rus metali o'z tarkibining mustahkamligi va sifati bilan ajralib turgan va yuqori baholangan. Masalan, Boysun bekligida qazib olingan temirning 1 pudi 91 tiyindan sotilsa, Rossiya metallining 1 pudi 7-8 so'm bo'lgan [4,56 b]. Amirlikning Hisor, Qorategin, Boysun, Shaxrisabz bekliklarida, G'ijduvon, Vobkent, Qorako'l tumani va Buxoro shahrida ko'plab cho'yan quyish korxonalari bo'lgan. Buxoro shahri va uning tevarak-atrofidagi qishloqlarda 40 ga yaqin cho'yan quyish korxonasi bo'lib, ularda o'nlab ustalar faoliyat ko'rsatgan. Cho'yangarlar asosan omoch tishi, qozon, chiroq, manqal, panjara, ko'za, choynak, arropa g'ildiragi halqasi, o'g'ircha, yog'log'u va boshqa buyumlar tayyorlashgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida metallni qayta quyish sohalaridan biri rextagarlik bo'lib, ular manqal, katta-kichik qo'ng'iroqlar, dovot, tugma, usmajo'shak, surmadon, uzuk, uzangi, kamar to'qalari, choyjo'sh va oftobalar uchun dasta va qubbachalar, zulfin va to'qmoqchalar tayyorlashgan. 1920-yilgi davlat to'ntarishiga qadar Buxoro shahrida 100 dan ortiq rextagar va 60 dan ortiq rextagralik do'koni bo'lib, ular shaharning Zangulasoyi bozorida joylashgan edi. Amirlikning

barcha yirik shaharlarida miskarlik do'konlari faoliyat ko'rsatib, birgina Buxoro shahrida ularning soni 200 ga yaqin bo'lgan. Amirlikning misga bo'lgan ehtiyoji asosan Rossiyadan olib kelingan mis hisobidan qoplangan. Masalan, 1840-1849-yillarda 3500 pud mis olib kelingan bo'lsa, keyingi yillarda uning miqdori oshib boravergan[8,42 b].

Odatda mis buyumlarni uch xil mutaxassislikdagi ustalar tayyorlaganlar: qizil va sariq misdan idish yasash, uning ichki va sirtqi qismini qalaylashni miskar bajarsa, idishning dastasi, qopqog'ining qubbasi, tumshug'ining sonulasini rextagar bronzadan quygan, naqqosh-kandakor esa idishga turli naqshlarni zarb qilgan. Buxoro miskarlari mis buyumlarni tayyorlashda ikki xil sangdon-sangdoni dunulya va mexlos sangdon, xoisk bolg'a, otashgirak, qalam, dam, uch xil ombir-rost, kaj, qalam ombirdan foydalanishgan. Mis idishlarga turli naqsh va gullar tasvirini tushirish kandakor tomonidan bajarilgan. Kandakor buyumga uncha murakkab bo'lmagan asboblari-xontaxta, mum yostiqlar, pargor, qayroq tosh, bolg'acha, "qalam", "parma qalam", "tozalov qalam", "naqsh qalam" kabi 14 xil po'lat qalamlar yordamida turli-tuman va kattalikda bo'lgan buyumlarga bodomcha, qo'sh bodom, bulbul, mehrob, turna, kirmak, zanjila, tugma, oftob, oy, islimi qalampir kabi yuzga yaqin naqshlardan solishgan.

Amirlik poytaxti Buxoro Markaziy Osiyodagi yirik zargarlik markazi hisoblanib, bu erda 400 ga yaqin zargar faoliyat ko'rsatgan va ularning bir qismi To'q Zargaron rastasida joylashgan edi. Samarqand shahrida esa 1870-yilda 23 ta zargarlik do'koni mavjud bo'lgan [2,26 b]. Zargarlik asboblari tarozi, dam, dahandam, o'choq, buta, sangdon, manqal, dastamanqal, dastakcho'b, qaychi, kirya, reg (qum) kosa, otashgirak, rezak, bolg'acha, egov, ombircha, qolib, muhrqalam, dupoya, bosma damdan iborat bo'lgan. Zargarlar turli taqinchoqlarni tayyorlashda tilla, kumush, mis hamda qimmatbaho toshlar- qizil yoqut, la'l, zumrad, feruza, serdolik, lojuvard, dur, marjon, sadafdan foydalanib ayollar uchun, quloqqa taqiladigan halqalar-"halqai beshoyoq", "halqai yakpoya", "halqai Muhammadi", "halqai sepoya", "halqai marjon", "qoziq isirg'a"lar, burunga taqiladigan-"arabi", "xolbinni"lar, sochga taqiladigan – "sochpopuk", "zar kokil", "tuf"lar, bo'yin va ko'krakka taqiladigan – "qalampir munchoq", "tavx", "tanga jevak", "tapishi dil", "nozi gardan", "zebi gardan", "zebi sina", "buyin tumor", "ko'krak tumor", "qo'ltiq tumor" "bozuband"lar, bilakka taqiladigan "panjarakori", "dastpona", "dastpona donador" kabi bilakuzuklar, peshona va chakka qismga

taqiladigan – “tillaqosh”, “bolo abro’”, “bibishak”, “tilla bargak”lar hamda turli kattalik va ko’rinishdagi uzuklar tayyorlashgan. Buxoro arkida saroyga qarashli “Zargarxona”da 1 ta “zargarboshi”, 1 ta bosh zargar va 20 ga yaqin zargar ustalar faoliyat ko’rsatib, ular nafaqat turli-tuman taqinchoqlar, balki 1 ta tilla, 4 ta kumush tanga zarb qiladigan dastgohlarda amirlikning pullarini ham tayyorlashgan. Shahar yaqinidagi G’urbun qishlog’ida mis tanga zarb qilingan.

Buxoro amirligida ko’nychilikning keng tarqalishiga ushbu hududda katta miqdorda chorva mollari: ot, tuya, yirik va mayda shoxli hayvonlarning parvarishlanganligi hamda amirlikning tog’li va dashtli hududlarida ko’plab yovvoyi hayvonlar: bo’ri, tulki, olqor, yovvoyi mushuk, Buxoro bug’usi, kiyiklarning mavjudligi sabab bo’lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida birgina Buxoro shahrida 150-200 ga yaqin ko’nchi bo’lgan bo’lsa, 1888-yilda Samarqand viloyatida 90 teri oshlovchi korxonalar bo’lgan [13,393 b]. Terini oshlash jarayonida chiqadigan badbo’y hid aholini bezovta qilmasligi hamda katta miqdorda suv va maydon kerak bo’lganligi sababli ko’nchilar o’z korxonalarini shahar tashqarisida qurganlar, o’zlari esa shaharning Eshoni pir, Arabon, Mir Ma’sud, Po’stindo’zon, Charmgaron, Kemuxtgaron mahallalarida istiqomat qilishgan. Ko’nchilar tayyorlagan turli-tuman charmdan etik, mahsi, kavush, qop, mesh, charm qutti-yaxdon, egar-jabduq, kitob muqovalari, kamar, charm yostiq, dumbira, sanoch va boshqalar tayyorlangan.

Amirlikda faoliyat ko’rsatgan ko’nchilar oshlaydigan turilariga qarab ixtisoslashganlar. Masalan, tag charm tayyorlovchi-charmgar, rax charm tayyorlovchi-raxgar, qora va qizil qayish charm tayyorlovchi esa qayishpaz yoki saxtiyongar deb atalgan. Ko’nchilar hatto o’z ixtisosliklari bo’yicha shaharlarda alohida mahallalarda istiqomat qilishgan. Masalan, Buxoro shahrida Arabon, Eshoni pir, Charmgaron mahallasi ko’nchilari qo’y terisidan oq charm-mesh, Kemuxtgaron mahallasida kemuxt, Mullo Shoh mahallasida ho’kiz terisidan charm, Po’stindo’zon mahallasida pochapo’stin, Xalifa Xudoydod mahallasida egar-jabduq uchun oq charm tayyorlashgan. Rossiya va Yevropa shaharlarida turli yillarda o’tkazilgan ko’rgazmalarda mahalliy charm mahsulotlari namoyish qilingan [17,81 v].

Ammo amirlik ma’muriyati tomonidan ko’nychilik ishlab chiqarishi umuman qo’llab-quvvatlanmaganligi va mahalliy bozorlar rus charmi mahsulotlari bilan to’lib borishi mahalliy ko’nchilarni kasodga uchrata boshlagan. 1920-yilgi davlat to’ntarishidan so’ng ko’nchilar artellarga

birlashtirilgan va asta-sekin ular o'rnida yirik ko'nchilik korxonalari vujudga keltirilgan.

Turli-tuman poyabzal tayyorlash bilan amirlikda etikdo'z, mahsido'z, kavushdo'zlar shug'ullangan. Ular tomonidan mahsi, kavsar, no'g'oy, pattoyi, charmdastak, amirkon kavushlar, toshtovon, no'g'oy, mukki etiklar va choriq tikilgan. Amirlik qishloqlarida faoliyat ko'rsatgan kosiblar asosan qishloq xo'jaligi ishlariga mo'ljallangan va ancha chidamli bo'lgan mukki va toshtovon etik hamda pattoyi kavushlar tikishgan. Poyabzaldo'zlarning ish qurollari juda oddiy bo'lib, ular bigiz, igna, buranda va gazan pichoqlar, mexlos, ombir, turli qalinlik va rangdagi iplar, dazgir, quva, turli kattalikdagi oxircho'b, shoncho'b kabi yog'och qolib, yog'och va charm andozalardan iborat bo'lgan.

Amirlikning yirik shaharlarida mehnat qilgan kosiblarning katta qismini etikdo'zlar tashkil qilgan. Ular faqat shahar aholisi uchungina emas, balki qishloq va chorvador aholi uchun ham turli-tuman etik-amirkon, xirom, bulg'ori, saxtiyon, mukkilar tikishgan. Amirlik aholisining o'rta hol va boy tabaqasiga mansub aholi vakillari ancha qimmatbaho, sifatli va ko'rkam bo'lgan etiklar kiyishgan. Bunday etiklarni mahalliy qora va qizil qayish charmdan hamda Rossiyaning Yaroslavl, Qozon, Tobol shaharlaridagi ko'nchilik zavodlari charmidan tayyorlashgan. Mahsi aholi o'rtasida keng tarqalgan poyabzal bo'lib, ko'chada kavush bilan kiyishgan. Mahsido'zlar kishilarning jinsi va yoshiga qarab-mardona (katta yoshdagi erkaklar uchun), zaifona (katta yoshdagi ayollar uchun) va bachakona (bolalar uchun) mahsilar tikishgan. Amirlikda tayyorlangan mahsilar shaklan ikki xil: 1. Ikki yoqlama yoki sodda mahsi (Bu mahsining o'ng-chapi bo'lmagan, qaysi oyoqqa bo'lsa ham kiyilavergan) va 2. Bir yoqlama yoki yormachiq mahsi (Bu mahsining o'ng-chap poylari aniq bo'lgan) bo'lgan. Mahsilar qanaqa charm va matodan tikilganiga qarab amirkon, bedana, go'spandi, xirom, bulg'ori, zardo'zi, atlas(xossagi) mahsi deb atalgan. Buxoro shahrining Ko'chabog' mahallasida istiqomat qilgan bir necha mahsido'zlarga faqat saroy buyurtmasi bilan zardo'zi mahsilar tikishga ruxsat berilgan.

Choriq qishloqda yashovchi aholi o'rtasida keng tarqalgan oyoq kiyimi blib, uni shahar kosiblari tikishmagan. Choriq tayyorlash uchun oshlanmagan quriq teri olinib, oyoq panjasi kattaligida bir bo'lagi kesib olingan. So'ngra pichoq bilan bichilgan terining chetlariga teshiklar qilinib shu teshiklardan aylanasi teri tasma o'tkazilgan. Choriq oyoqqa kiyilganda shu tasmaning ikki uchidan tortilgan va teri yuqoriga ko'tarilib

oyoq yuzasini qoplagan va orqa tomondan tortilgan tasmaning uchlari bir-biriga bog'lab qo'yilgan. Choriqni ko'proq batrak va chorikorlar dala yumushlarida kiyishgan. XIX asr oxiriga kelib Buxoro shahrida 20 ga yaqin yirikroq poyabzalchilik korxonalari paydo bo'la boshlagan, ularda 10 va undan ortiq ustalar yollanib mehnat qilishgan. Barcha turdagi poyabzal tikuvchi kosiblar etarli mablag' va xom ashyoga ega bo'lishsa, yil davomida uzluksiz mehnat qilishgan. Etikdo'zlar bir yilda 700-800 so'mlik. kavushdo'zlar 1500-1800 so'mlik mahsulot tayyorlab, shundan 15% sof daromad olingan[19,21 b].

Amirlik poytaxti, beklik va tumanlar markazlari, yirik qishloqlarda aholi uchun xum, ko'za, xurmacha, piyola, kosa, lagan, tovoq, tog'ora, tandir, quvur, tuvak, oftoba, dastsho'y, bolalar o'yinchoqlari-hushtak, qo'g'irchoq. kabi buyumlar kulollar tomonidan tayyorlangan. Ushbu buyumlarni tayyorlashda kulolning asosiy mehnat quroli charx, mola, gundak, qumburak, shogirdak, taxtacha, labgir, kajkord, bandak, qolib, degsangtosh, sangob kabi asboblari bo'lgan. Kulolchilikda asosiy xom ashyo hisoblangan sariq-qizg'ish tusli maxsus tuproq-ispechni cho'l-biyobonlardan kulollar o'zlari yoki maxsus kishilar-gilkashlar qazib olib kelishgan. Kulollar buyumlarga turli naqsh va gullar solishda katta mahoratga erishgan bo'lib, birgiga "gul" naqshining 200 xili bo'lgan. Bundan tashqari asosan tovoq, lagan, kosa va piyolalarga murakkab va oddiy husnixat-kufiy, suls, nasx, musalsal, nasta'liq, rayhoniy usullarda yozuvlar bitganlar. Tandırsozlik kulolchilikning alohida sohasi hisoblanib, amirlikning turli hududlarida erga, devorga o'rnatiladigan turli kattalikdagi tandirlar tayyorlangan. Tandırsozlikda ham asosiy xom ashyo sariq-qizg'ish tusli maxsus tuproq-ispech hisoblangan. Tandirni uzoq masofaga olib borish noqulay bo'lganligidan ko'pincha tandirsoz o'z mahsulotini tevarak-atrofdagi aholiga sotgan yoki kerakli joyga o'zi xom ashyo va asboblari bilan borib tandir yasab bergan.

Amirlikning yirik shahar va qishloqlaridagi katta nonvoyxonalar, oilalardagi tandirlarda katta yupqa non-"taftan", moy qo'shilgan non-"patir", naxo't suviga qorilgan non-"shirmoy kulcha", kichik non-"nazaraki kulcha", uy noni-"xonagi", uzunchoq non-"noni zaboni gov" kabi turli-tuman non tayyorlangan. Non tayyorlab bozorda sotish bilan shug'ullanadigan oilalarda ayollar xamir qorish va non yopish bilan, erkaklar un, o'tin olib kelish va nonni bozorga chiqarib sotish bilan shug'ullangan.

Qog'oz tayyorlashda Samarqand, Qo'qondan keyingi o'rinda turgan "Buxoroda tayyorlangan yozuv qog'ozlarining shuhrati nafaqat Turkistonga, balki unga qo'shni mamlakatlarga ham taralgandir. Bu qog'ozlar ipakdan tayyorlangan bo'lib, o'zining silliqligi, yupqaligi bilan arab yozuvi uchun juda qulaydir" deb yozib qoldirilgan[12,211 b]. XIX asrning oxirlarida Buxoroga kelgan rus mahkamasi xodimlari "Qog'oz bozori shaharda qog'oz, qalam va qo'lyozma kitoblar topish mumkin bo'lgan yagona joydir" deb yozadilar[14,]. Sitnyakovskiy ma'lumotiga qaraganda, "Vobkent tumanida Juvozi qog'oz kanali mavjud bo'lib, uning atrofida biror-bir qishloq joylashmagan. Lekin asosiy, Shohrud kanalidan suv chiqarilgan Juvoz arig'i ham bor. Bu ariq bo'yida esa Juvozi qog'oz degan qishloq bo'lib, 30 ta xonadon istiqomat qilgan"[10,259 b].

Arxiv manbalariga qaraganda, XX asr boshida Buxoroda qog'oz tayyorlash korxonasi shahar atrofidagi Galaosiyo va G'urbun qishloqlarida joylashgan bo'lgan. G'urbun qishlog'idagi qog'ozboflik korxonasida 46 kishi mehnat qilgan bo'lsa, Galaosiyo qishlog'idagi korxonada 51 kishi mehnat qilgan[18,15,36 v]. V. G. Grigoryevning yozishicha G'urbun qishlog'ida 40 ta qog'ozbof usta mehnat qilgan [1,197 b]. Buxoro qog'ozi Samarqand qog'ozi bilan sifat jihatidan raqobatlasha olmasada, ammo foydalanilgan asosiy masulotlari bilan ajralib turgan. XIX asr o'rtalarida Samarqand, Qo'qon qog'ozini tayyorlashda eski paxta, lattalardan foydalanilsa, Buxoroda birinchi navli paxtadan foydalanishgan. Bundan tashqari Markaziy Osiyoda qog'oz tayyorlashda zig'ir tolasi, kanop, qamish, paxta, ipak chiqitlaridan ham foydalanishgan. Qog'oz tayyorlovchi usta - qog'ozrez, qog'ozni ohorlovchi-muhrkash, paxta yuvuvchi - paxtasho'y, qog'ozga un-moy qo'shuvchilar-ohorchi, qog'ozni quritish uchun devorga yopishtiradigan usta-qog'ozchaspon deb atalgan[19, 23 v]. XX asrning birinchi choragida ustalarning oylik ish haqi 115-170 tangani tashkil etgan. Qog'ozboflar qog'oz tayyorlash jarayonida uning qanday rangda bo'lishiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Varaqlarning qanday rangga bo'yalishi ma'lum bir ma'noni anglatgan. Masalan, havorang-motam, ayriliq alomatini, och-qizil-baxt-saodat, shodlik, bayram, quvonch xabarini bildirgan. Qog'ozrezlar ko'p hollarda qog'ozni och-qizil va yashil ranglarga bo'yashgan, negaki bu ranglar oq qog'ozga qaraganda kishiga qandaydir ruhiy tetiklik, orom bag'ishlab, tez charchashning oldini olgan. Ko'k rangli qog'ozlardan asosan qayg'uli xabarlarni bildirishda foydalanishgan.

Xullas, XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshida Buxoro xonligi nafaqat yirik yer osti va usti boyliklariga boy hudud hamda ilm-fan

markazi sifatida, balki hunarmandchilikning turli sohalari ravnaq topgan hudud sifatida ham mashhur bo'lgan. Turli qiyinchiliklar va to'siqlarni mardonavor yengib, hunarmandlar o'z ota meros kasblarni davom ettirib, xalqimizning turli mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini baholi qudrat qondirib kelganlar va o'z hunarlarini asrlar osha asrab-avaylab, hozirgi kunlarimizgacha yetib kelishida o'z hissalarini qo'shganlar.

Foydalanilgan manbalar

1. Григорьев Г.В. Кустарное производство бумаги в Узбекистане. // Советская этнография. Т.3. -М.-Л.: 1940.
2. Костенко Л. Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г.-СПб.: 1871.
3. Краузе Л. О туземном оружии в Туркестанском крае.-М.: Сб. "Русский Туркестан", Выпуск 2. 1872.
4. Массон М.Е. К истории черной металлургии Узбекистана.-Т.: Гос. Изд.-во УзССР, 1947.
5. Миддендорф Г. Путешествие из Оренбурга в Бухару в 1820 году. -М.: Наука, 1975.
6. Qilichev R. Buxoro shahrida hunarmandchilik.-Т.: Fan, 1996.
7. Qilichev R. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida Buxoro shahrida hunarmandchilik. Tarix fanl.nomzod. diss. -Т.: 1997.
8. Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. Опыт историко-статистического обзора внешней торговли ханства вне сферы таможенного объединения его с Российской империей.-Т.: Изд.ЦСУ Турк. Республики, 1922.
9. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары.-Т.: Изд-во лит-ы и иск. имени Г.Гуляма, 1981.
10. Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зерафшана. // Известия туркологического отдела ИРГО. Выпуск 2.-Т.: 1900.
11. Сухарева О.А. Познефеодальный город Бухара конца XIX-начала XX века. Ремесленная промышленность.-Т.: Изд-во АН УзССР, 1962.
12. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. -СПб.: 1885.
13. Ведомость заводам, мастерским и ремесленным заведениям в Самаркандской области за 1888 год.-"Сборник материалов для статистики Самаркандской области за 1887-1888 г.".-С.: 1890.
14. Записки о Бухарском ханстве (отчеты Демизона П.И. и Виткевича И.В.). - М.: 1883.
15. O'zR MDA, fond 596, 1-yozuv, 3-ish.
16. O'zR MDA, fond I-1,16-yozuv, 2280-ish.
17. O'zR MDA, fond 72, 1-yozuv, 9-ish.
18. O'zR MDA, 53-jamg'arma, 2-ro'yxat, 20-ish.
19. O'zR MDA , 53-jamg'arma, 2-ro'yxat, 94-ish.
20. Шишов А. Таджики. // Средняя Азия, №6. -Т.: 1910.